

Излаш



[Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida](#)

**ILOVA**  
[O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi ixtiyoriga o'tkazilayotgan ilmiy-tadqiqot institutlari va ta'lim muassasalari hamda boshqa tashkilotlar RO'YXATI](#)

[II. O'zbekiston avtomobil transporti agentligi](#)

[III. O'zbekiston Respublikasi Temir yo'llarda yuk va yo'lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi](#)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.02.2019 yildagi PF-5647-son

Кучга кириш санаси

07.02.2019

Қўшимча ахборот

[Улашиш](#)

Hujjat 18.10.2022 00 sanasi holatiga  
[Amaldagi versiyaga o'tish](#)

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

### TRANSPORT SOHASIDA DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

So'nggi yillarda mamlakatimizda transport va transport kommunikatsiyalari sohasini rivojlantirish, tashishlarning yuqori darajadagi xavfsizligini ta'minlash, transport sohasidagi boshqaruv tizimini takomillashtirish, soha uchun malakali mutaxassislarni tayyorlashga yo'naltirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va amalga oshirilayotgan islohotlar respublikaning geografik joylashuvini inobatga olgan holda transport xizmatlarining sifatli va ommabopligini ta'minlashga yo'naltirilgan yagona transport siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, sohani boshqarishning zamonaviy texnologiyalari va intellektual tizimlarini joriy etishda alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda.

Transport sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish, respublikaning investitsiyaviy jozibadorligi va eksport salohiyatini oshirish, transport kommunikatsiyalarini strategik rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida, shuningdek 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha [Harakatlar strategiyasida](#) belgilangan vazifalarga muvofiq:

1. O'zbekiston avtomobil transporti agentligi negizida O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi (keyingi o'rinlarda — Vazirlik) tashkil etilsin.

2. Belgilab qo'yilsinki:

Vazirlik avtomobil, temir yo'l, havo, daryo transportlari, metropoliten, shuningdek yo'l xo'jaligini rivojlantirish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha davlat boshqaruvi organi hisoblanadi;

Vazirlik transport va yo'l xo'jaligi sohasidagi tashkilotlar faoliyatini normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish, litsenziya va ruxsatnomalar berish, sertifikatlashtirish, samarali texnik va tarif siyosatini amalga oshirish yo'li orqali davlat tomonidan tartibga solish vazifasini amalga oshiradi;

Vazirlik tomonidan o'z vakolati doirasida qabul qilingan qarorlarning ijrosi davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari, shuningdek fuqarolar uchun majburiy hisoblanadi.

3. Quyidagilar Vazirlikning asosiy vazifalari etib belgilansin:

transportning barcha turlarini yagona transport tarmog'iga integratsiyalashuvi va yangi samarali transport-logistika tizimlaridan foydalangan holda uyg'unlikda rivojlantirishga yo'naltirilgan yagona davlat transport siyosatini ishlab chiqish;

transport va logistika xizmatlari bozorini rivojlantirishni rag'batlantirish, ularning barcha toifadagi iste'molchilar uchun ommabopligini ta'minlash, shuningdek sohaga investitsiyalarni jalb etishga yo'naltirilgan transport sohasidagi yagona tarif siyosatini amalga oshirish;

xalqaro transport koridorlarini rivojlantirish, logistika tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va chora-tadbirlarni amalga oshirish, mamlakat transport salohiyatidan samarali foydalanish, tadbirkorlik subyektlarining transport-logistika xizmatlaridan foydalanishdagi sarf-xarajatlarni kamaytirish;

transport va yo'l xo'jaligi sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish va mamlakat investitsiyaviy jozibadorligini oshirish;

butun transport tizimini raqamlashtirish bo'yicha ilg'or axborot texnologiyalarini joriy etish, O'zbekiston Respublikasi Transport tizimining bir-biriga bog'langan yagona tizimini istiqbolli rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

avtomobil yo'llari sohasida yagona texnika siyosatini amalga oshirish, foydalanuvchilar manfaatlarini hisobga olgan holda, avtomobil yo'llari, aerodromlar va aeroportlar, vokzallar, temir yo'llar va transport infratuzilmasining boshqa obyektlarini moliyalashtirish, loyihalash, qurish, ta'mirlash va foydalanish masalalarining kompleks yechimini ta'minlash;

*Oldingi tahrirga qarang.*

transport sohasida nazoratni amalga oshirish, fuqaro aviatsiyasi va eksperimental havo kemalaridagi halokatlar va baxtsiz hodisalarni, shuningdek metropoliten, temir yo'l va daryo

transportidagi avariya va halokatlar bo'yicha tekshiruvlarni tashkil etish va amalga oshirish;

*(3-bandining sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-oktabrdagi PF-234-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.10.2022-y., 06/22/234/0935-son)*

transport va yo'l xo'jaligi sohasidagi xalqaro va hududiy hamkorlikni rivojlantirish hisobiga transport xizmatlari jahon bozorida O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini ta'minlash;

transport sohasidagi joriy va istiqbolli ehtiyojlarni inobatga olgan holda ta'lim, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg'or usullarini tizimli ravishda joriy etish.

#### 4. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi, uni O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi etib qayta nomlagan holda;

O'zbekiston Respublikasi Parvozlarda xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, uni O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi etib qayta tashkil etgan holda;

O'zbekiston Respublikasi Temir yo'llarda yuk va yo'lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, uni O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Temir yo'llarda yuk va yo'lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi etib qayta nomlagan holda;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yo'l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, uni O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Yo'l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish inspeksiyasi etib qayta nomlagan holda;

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining O'zbekiston kemachilik registri;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zaeronavigatsiya" Markazi; **ilovaga** muvofiq ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari, boshqa tashkilotlar, faoliyatini moliyalashtirishning amaldagi tartibi saqlanib qolgan holda, Vazirlik ixtiyoriga o'tkazilsin.

Toshkent shahar Transport va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish departamenti tugatilsin.

#### 5. Quyidagi vazifa, funktsiya va vakolatlar Vazirlikka o'tkazilsin:

##### a) O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining quyidagi sohalardagi:

kemalarni ro'yxatga olish (qayta ro'yxatga olish), kemalarni qurish, foydalanish, qayta jihozlash va ta'mirlashga guvohnomalar berish;

kemalarga kema guvohnomasi va biletleri, tasniflash guvohnomalari, suzish uchun muvofiqlik guvohnomalari va kemasozlikni tartibga soluvchi qoidalarda nazarda tutilgan boshqa hujjatlarni berish;

##### b) "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatining quyidagi sohalardagi:

temir yo'l transportini rivojlantirishning davlat dasturlarini ishlab chiqish, temir yo'l transporti istiqbolli prognozlari, rivojlantirish va obyektlarni joylashtirish sxemalarini ishlab chiqish;

temir yo'llarda yuk va yo'lovchilar tashish sohasida tarif va tranzit siyosatni amalga oshirish, temir yo'l transportining o'tkazish va tashish qobiliyatini oshirish, temir yo'l transporti xizmatlari bozorini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni qabul qilish;

sanoat korxonalarini harakatdagi tarkiblarining umumiy foydalanishdagi temir yo'llariga chiqishi uchun ruxsatnomalar berish;

temir yo'l yo'laklari, shuningdek vagon va konteynerlarni yuklash, tushirish va tozalashga mo'ljallangan uskunalarni qurish va ta'mirlash loyihalarini kelishish.

6. Boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni 15 nafardan tashkil topgan, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish muammolarini o'rganish markazi tashkil etilsin.

7. Vazirlik O'zbekiston avtomobil transporti agentligining barcha huquqlari va majburiyatlari, shuningdek Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi, Parvozlarda xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Temir yo'llarda yuk va yo'lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yo'l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish inspeksiyasining transport va yo'l xo'jaligi sohasidagi qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi tomonidan imzolangan xalqaro shartnomalari, shuningdek mazkur Farmonga muvofiq o'tkazilayotgan boshqa vakolatlari borasidagi huquq va majburiyatlari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

8. Vazirlik O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda 2019-yil 1-noyabrga qadar barcha turdagi

Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

ILOVA  
O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi ixtiyoriga o'tkazilayotgan ilmiy-tadqiqot institutlari va ta'lim muassasalari hamda boshqa tashkilotlar RO'YXATI

II. O'zbekiston avtomobil transporti agentligi

III. O'zbekiston Respublikasi Temir yo'llarda yuk va yo'lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi

transportlarning optimal va muvozanatlashgan o'zaro aloqasini nazarda tutuvchi, umumqabul qilingan xalqaro huquq me'yorlarini inobatga olgan holda "Transport to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

#### 9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga:

bir hafta muddatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi qarori loyihasini tasdiqlash uchun kiritsin;

bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish muammolarini o'rganish markazi faoliyatini tashkil etish bo'yicha hukumat qarorini qabul qilsin;

uch oy muddatda O'zbekiston Respublikasining logistika samaradorligi bo'yicha xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilash choralari nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasida 2025-yilgacha transportni rivojlantirish konsepsiyasini va uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqsin.

10. Vazirlik O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga mazkur Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

11. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining birinchi o'rinbosari B.M. Mavlonov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2019-yil 1-fevral,  
PF-5647-son

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi  
PF-5647-son Farmoniga  
ILOVA

### **O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi ixtiyoriga o'tkazilayotgan ilmiy-tadqiqot institutlari va ta'lim muassasalari hamda boshqa tashkilotlar**

#### RO'YXATI

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(I bo'lim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-martdagi PF-5971-sonli Farmoniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.03.2020-y., 06/20/5971/0348-son)*

#### **II. O'zbekiston avtomobil transporti agentligi**

9. "O'zavtotranstexnika" ilmiy-ishlab chiqarish markazi.
10. Avtomobil transporti xodimlarini malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti.
11. Nukus avtomobil-yo'l xo'jaligi va xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji.
12. Andijon transport va xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji.
13. Samarqand avtomobil va yo'llar kasb-hunar kolleji.

14. Avtobuslarda yo'lovchi tashish (shu jumladan, xalqaro), avtomobillarda yuk tashish xizmatlarini ko'rsatuvchi, shuningdek, transport-logistika, to'xtash punktlarini qurish, qayta tiklash va ta'mirlash faoliyatini amalga oshiruvchi maxsuslashtirilgan tashkilotlar (jami 13 birlik).

15. "UZAUTOTRANS SERVIS".
16. "O'zavtovokzal servis".
17. Agentlik ishtirokidagi avtovokzal va avtobekatlar.

#### **III. O'zbekiston Respublikasi Temir yo'llarda yuk va yo'lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi**

18. O'zining temir yo'llariga ega bo'lgan yuridik shaxslarning temir yo'l transporti xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash markazi.

19. Putur yetkazmasdan nazorat qilish laboratoriyasi.

*(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.02.2019-y., 06/19/5647/2591-son; 20.03.2020-y., 06/20/5971/0348-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.10.2022-y., 06/22/234/0935-son)*

[Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida](#)

[ILOVA  
O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi ixtiyoriga o'tkazilayotgan ilmiy-tadqiqot institutlari va ta'lim muassasalari hamda boshqa tashkilotlar RO'YXATI](#)

[II. O'zbekiston avtomobil transporti agentligi](#)

[III. O'zbekiston Respublikasi Temir yo'llarda yuk va yo'lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi](#)